

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHNING METODIK-TASHKILY ASOSLARI

Ozoda

Navoiy viloyati Navbahor tumani 4-DMTT tarbiyachi yordamchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni maktabga tayyorlashning metodik-tashkiliy asoslari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Metodika, ta'lim, tarbiya, psixologik muhit, shaxs, rag'batlantirish.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk qilib maktabga tayyorlash maqsadini ko'zlaydi. Ta'lim-tarbiya qancha erta boshlansa, uning samarasi shuncha erta namoyon bo'ladi, shuningdek, insonning butun hayot tarziga ijobiy ta'sir qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalar qamrovini kengaytirish, muassasalarni obodonlashtirish, ularning kirish qismidan tortib, yo'laklari, hattoki ekilgan gul, daraxtlari, guruh xonasidagi har bir jihoz bolani rivojlantirish uchun yo'naltirilganiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi tezkor davrda maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlash, fikrini erkin ifodalashga o'rgatuvchi muhit yaratish, albatta, muassasaning samarali boshqaruviga bevosita aloqador. Shunday ekan, quyidagi zamonaviy usullarni rahbarlik faoliyatiga omuxtalash lozim. Har bir ishni amalga oshirish uchun samarali boshqaruvning quyidagi usullaridan foydalaniladi: Istiqbol rejasi tuzilib, mas'ullar tayinlanadi. Reja asosida har bir xodim ishtiyoq bilan ishlashga da'vat etiladi. Rahbarning istiqboli:

- ijodiy hamfikrlar jamoasini tashkil etish;
- jamoada qulay ruhiy-psixologik sharoit yaratish;
- unikal (nodir) muassasa tashkil etish;
- kasbiy mahoratni takomillashtirish yo'lida intellektual va amaliy bazani yaratish (kutubxona, seminar, treninglar).

Maqsadni amalga oshirishda, avvalo, optimal ijrochi, yordamchi va mas'ullarni aniqlab olish lozim. Shuningdek, muassasada sog'lom psixologik muhit yaratish, ishning samaradorligini oshirish uchun rag'batlantirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda B.T. Vashingtonning quyidagi fikrlarini esga olish joiz, "Aminmanki, har bir insonning hayoti doimiy va kutilmagan rag'batlar bilan to'la bo'lishi kerak va ular bu insonni har kuni eng yuqori darajada turishga da'vat etadi".

Jamoa	a'zolari	uchun	rag'batlantirish:
– rahbar	va	kasbdoshlarning	ma'qullashi;
– bolajon	va	ota-onalar	tashakkurlari;

- mukofot (pul, teatrga, kontsertga chipta, sayohatga yo`llanma bo`lishi mumkin);
- kasbiy mahoratning omma o`rtasida tan olinishi va kasbdoshlari ko`rsatgan hurmat.

Zero, rag`batlantirish – boshqaruvning kuchli qurolidir. O`ylab muomala qilish – san`at kuch bilan hech qanday natijaga erishib bo`lmaydigan hollarda ham takt (o`ylab muomala qilish) yordamida muvaffaqiyatga erishish mumkin. D. Lebbok Tashakkur izhor qilish ham boshqaruvning nozik va sezilarli komponenti (qismi)dir. Maktabgacha ta`lim muassasalarining boshqaruvida takt deganda, faqatgina hamkasblar, tarbiyalanuvchilar, ota-onalar bilan bo`lgan yumshoq muomala ko`zda tutilmaydi, balki:

- tinglay olish va yuzaga kelgan muammoni muhokama qilish;
- tadbir o`tkazganda, (zarur hollarda) ko`mak berish;
- hamkasblarning muvaffaqiyatli harakatlarini ma`qullash;– hamkasblari, bolalari, oilalari haqidagi axborotni sir saqlash (bola salomatligiga tahdid solmaganda);
- hamkasblar, bolajonlar, ota-onalar oldida ovozni baland ko`tarish, baqirish mumkin emas;
- maqtov va taqdirlash omma ichida, tanbeh esa yolg`iz bo`lganda berilishi kerak.

Javobgarlik kurashda yaxshi maslahat bergan odam emas, uni bajarish javobgarligini o`ziga olgan va bajarishga buyruq bergan yutadi. Napoleon

Xodimlar javobgarligi quyidagilarda ifodalanadi:

- MTM obro`sini yaratish va mustahkamlash;
- kasb mahoratiga ega xodimlarni tanlash;
- ota-ona bilan ijodiy muloqot o`rnatish;
- bolajonlar faoliyatini kuzatish, o`rganish, tahlil qilish;
- yuzaga kelgan muammolarni jamoada hal qilish;
- javobgarlikni optimal taqsimlash, o`zaro fikr almashish;
- MTMga turli yo`nalishdagi mutaxassislarni taklif etish;
- ota-onalar va tarbiyachilar uchun jamoani jipslashtiradigan, bolalar ta`lim va tarbiyasiga yordam beradigan tadbirlarni tashkil etish;
- MTM va har bir xodim faoliyatini tahlil qilish, kasbiy bilimlarini aniqlash.

Xatolarni tan olish va tuzata bilish xato qilmaslik uchun tajriba orttirish kerak, tajriba orttirish uchun xato qilish kerak. L. Piter Har bir ishni chin dildan qilganda ham ba`zan xatoga yo`l qo`yish mumkin. Lekin MTM xodimlari, shifokor, o`qituvchi kabi kasb egalari xato qilishga haqi yo`q, deb hisoblangani uchun bu xatolarni oldindan bilishi, tahlil qilishi va o`z vaqtida tuzatishi kerak. Muloqot – jonli ishtirok Men doim kuzatuvchi rolini yomon ko`rganman. Menga nima, agar o`zim qatnashmasam? Bor bo`lishim uchun ishtirok etishim shart A. De Sent-Ekzyuperi jonli muloqot har bir insonga kerak. Tarbiyachiga esa ikki barobar zarurdir. Tarbiyachilarga ta`lim olishlari uchun yordam berish zarur. Jamoadagi ishonchli munosabatlar – qulay psixologik

muhit va xodimlarining o'zaro ahilliklarini ham ta'minlaydi. Jonli muloqot quyidagilarni ko'zda tutadi:

- tez va konstruktiv yordam;
- xodimlarning kasbiy faoliyatini optimallashtirish bo'yicha takliflar;
- jamoani doimiy takomillashtirish va yangi ta'lim dasturlarini tuzish;
- xodimlar bilan kundalik muloqot, korporativ tadbirlar o'tkazish.

Konstruktiv tanqid tanqid faqat shu holda meva beradiki, u hukm chiqarib turib, yomon bo'lgan narsa qanday bo'lishi kerakligini ko'rsata olsa. L. Tolstoy Konstruktiv tanqid – muvaffaqiyatli boshqaruvning ajralmas qismidir. Xodimlarning xatoga yo'l qo'yish ehtimolini ko'zda tutib, kelgusida bunga yo'l qo'ymaslik uchun yumshoqlik bilan xatoni ko'rsatib uni to'g'rilash yo'llarini taklif qilish kerak. Xulosa qilib aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim muassasalarini boshqarishning yangi zamonaviy usullaridan unumli foydalanib, topshiriqlar ijrosining muntazam nazorati natijasida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning sifat va samaradorligi oshib boradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. G'oziev E.G. Umumiypsixologiya. Toshkent. 2002. 1-2 kitob.
2. Nishonova Z.T. Do'stmuxamedova S.H.A., Pedagogikpsixologiya. O'quvqo'llanma T. 2011
3. Davletshin M.G., Mavlonov M.M., To'ychieva S.M., "Yoshvapedagogikpsixologiya" O'quvqo'llanma Toshkent, TDPU, 2008 yil.
4. Nishonova Z.T., Alimova G. Bolalarpsixologiyasivaunio'qitishmetodikasi. O'quvqo'llanma T. TDPU, 2005
5. www.ziyonet.uz
6. www.psychology.ru
7. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi 595-sonli [Qonuni](#)
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti" 802-sonli [Qarori](#)
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 999-sonli [qarori](#)
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 marta "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 132-son [Qarori](#)
11. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2020 yil 27 marta "54-son buyrug'i asosida qabul qilingan "Ilm yo'li" variativ dasturi. 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga [tayyorlash](#)

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”
13. 2019 yil 13 maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli Qarori

